

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**KADIROVA NARGIS RUSTAM QIZI**

**IKKILAMCHI SELLYULOZA VA CHARM SAQLOVCHI TOLASIMON  
MASSANI FIZIK-KIMYOVIY MODIFIKATSIYASI**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

UO'K: 676.24:675.81

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation for doctor of philosophy (PhD) on chemical science**

**Kadirova Nargis Rustam qizi**

Ikkilamchi selluloza va charm saqlovchi tolasimon massani fizik-kimyoviy modifikatsiyasi.....3

**Кадирова Нургис Рустам кизи**

Физико-химическая модификация вторичной целлюлозо- и кожесодержащей волокнистой массы.....21

**Kadirova Nargis Rustam kizi**

Physico-chemical modification of secondary cellulose- and leather-containing fibrous mass .....39

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....42**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**KADIROVA NARGIS RUSTAM QIZI**

**IKKILAMCHI SELLYULOZA VA CHARM SAQLOVCHI TOLASIMON  
MASSANI FIZIK-KIMYOVIY MODIFIKATSIYASI**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/K747 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ttyesi.uz](http://www.ttyesi.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rafikov Adxam Salimovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yuldashev Sherzod Abdullayevich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Xudayberdiyeva Dilfuza Baxramovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil 11 dekabr soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxdjaxon ko'chasi 5-uy. Tel.: (99871) 253-32-02, faks: (99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz)).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (212-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxdjaxon ko'chasi 5-uy. Tel.: (99871) 253-32-02, faks: (99871) 253-36-17

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 26 noyabr kuni tarqatildi.  
(2024 yil 26 noyabrdagi 212 – raqamli reyestr bayonnomasi).



**X.H. Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z. Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

**I.A. Nabiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda soʻngi yillarda konstruktiv, pardali, qadoqlash, shu jumladan tolali materiallarning ustuvorligi tendentsiyasi biroz oʻzgardi: sintetik materiallardan koʻra tabiiy materiallar va mahsulotlarni qoʻllash yetakchi oʻrinlardan birini egallamoqda. Bu, birinchi navbatda, ekologik xavfsizlik, atrof-muhit va aholi salomatligini asrash boʻyicha gʻamxoʻrlik va biologik parchalanmaydigan sintetik materiallarning bartaraf etilmaydigan xavflarini hisobga olishni taqazo etadi. Afsuski, tabiiy zahiralalar va tabiiy xom ashyoni yetishtirish va yangilash imkoniyatlari makon, vaqt va iqlim sharoitlari bilan cheklangan. Shu bilan birga, barcha sellyuloza-qogʻoz, ayniqsa terini qayta ishlash korxonalarida hosil boʻladigan katta miqdordagi texnologik chiqindilar, shuningdek, maishiy tolali chiqindilardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda tolali va charm chiqindilarni qayta tiklash, ular asosida keng turdagi maʼlum boʻlgan va yangi materiallarni yaratish, ularni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratishga yonaltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, tadqiqotlar sanoat va maishiy chiqindilarning sellyulazali asosiy tarkibiy qismi – makulatura asosida qadoqlash qogʻozi va karton ishlab chiqarishga, terini qayta ishlash korxonalarida hosil boʻladigan oshlangan charm chiqindilarini qayta ishlashga, polisaxarid va oqsil tabiatli tiklangan ikkilamchi xomashyodan modifikatsiyalangan tolasimon massa va tegishli maxsulotlar yaratishga yonaltirilmoqda. Ushbu chiqindilarni qayta ishlash orqali qogʻoz va charm-poyabzal sanoati uchun maqsadli maxsulotlar ishlab chiqarish, ekologik muammolarni kamaytirish va ayni paytda iqtisodiy samaraga erishishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida qoramol va qoʻy terisidan teri ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bir qator korxonalar faoliyat koʻrsatmoqda va bu soha mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Tolali mayishiy chiqindilarni qayta ishlash, kollageni oshlanmagan teridan ajratib olish va foydalanish, xromlangan terini qayta ishlash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarda Yangi Oʻzbekistonnig taraqqiyot strategiyasida “2026 yilga qadar maishiy chiqindilarni yigʻishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 21 foizdan 50 foizga yetkazish”<sup>1</sup> muhim vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, teri chiqindilari kiritilgan tolali materiallarning tuzilishi va xossalriga sezilarli taʼsir koʻrsatadigan chiqindilarni fizik-kimyoviy modifikatsiyasi va fazalar chegarasida sodir boʻladigan jarayonlari tadqiq etish, teri chiqindilarini maqsadli qayta ishlash, chiqindilaridan ekologik toza, biologik parchalanadigan tolali maxsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 yanvardagi PF-5-son “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy taʼsirini kamaytirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmoni, 2017 yil 25 avgustdagi PQ-3244-sonli “Respublikada sellyuloza va qogʻoz mahsulotlari

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni

ishlab chiqarish bo'yicha qo'shimcha quvvatlar tashkil etish to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada hizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Atrof-muhit muammolarini hal qilishda oshlangan va oshlanmagan teri chiqindilarini qayta ishlash va utilizatsiya qilish bilan xorijda Velusami M., Bhavya B., Jiri P., Marina V., Silvia P., Jiri P., Dalev P., Murali S, Simeonovlar shug'ullanishgan. Bu erda asosiy e'tibor chiqindilarni kompleks boshqarish tamoyillariga va qayta ishlashni bir necha turlariga qaratilgan. Qog'oz sanoati uchun qayta ishlangan materiallardan tola ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqotlar Zhibin X., Amit Ch., Li T., Mayk R., Yonghao Ni, Min D., Mingxing S., Bin Ch., Hongyi X., Dingfan Zh., Zhixiu H., Lan Y., Yutao W. va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Respublikamizda sellyuloza saqllovchi chiqindilarni qayta ishlash sohasi bo'yicha tadqiqotlar G. Rahmonberdiev, A.A. Ataxanov, I.A. Nabieva va boshqalar tomonidan bajarilgan. Teri sanoati chiqindilarini qayta ishlash muammolari S.X. Karimov, M.Sh. Hakimova, S.Sh. Toshpo'latov, T.J. Qodirov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Yirik qoramol terisi chiqindilaridan olingan oqsil gidrolizatidan va uning payvand sopolimerlaridan paxta kalavasini oxarlashda ijobiy natijalarga erishildi. Oshlangan chiqindilarni fizik-kimyoviy modifikatsiyalash, tarkibida ham sellyuloza, ham oqsil chiqindilari bo'lgan modifikatsiyalangan tolali massani ishlab chiqarish, tadbiiq qilish va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F-7-16 "Mahalliy xomashyodan foydalangan holda termoelastoplastlar va qatlamli materiallarni ishlab chiqarish, xossalari va qo'llanilishi" (2017-2020) va IL-4821091581 "Sellyulozali to'qimachilik materiallarini biokimyoviy modifikatsiyalash" (2022-2024 yy.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** ikkilamchi sellyuloza, oshlangan va oshlanmagan teri chiqindilari asosidagi tolalisimon massaning fizik-kimyoviy modifikatsiyasi va amaliy xossalari aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oshlangan va oshlanmagan teri chiqindilarini ishqoriy modifikatsiyalashning konsentratsiyasi va harorat-vaqt rejimlarini aniqlash;

ikkilamchi sellyuloza va modifikatsiyalangan teri chiqindilari asosida tolali massa tayyorlash usulini ishlab chiqish;

ikkilamchi sellyuloza va teri chiqindilari asosida tolali chiqindilarni modifikatsiyalash jarayonlari kimyoviy jihatlarini aniqlash;

modifikatsiyalangan tolali massaning morfologiyasi va element tarkibini tadqiq etish;

tolali massaning fizik-mexanik xossalarini modifikatsiya qiluvchi reagentning tabiati va konsentratsiyasiga, modifikatsiyalash sharoitlari va rejimi, tolali massani maydalash darajasiga bog'liqligini aniqlash;

ikkilamchi sellyuloza, oshlangan va oshlanmagan teri chiqindilari va yelimlovchi modda asosida tolali massani fizik-kimyoviy modifikatsiya qilish texnologiyasini ishlab chiqish, va modifikatsiyalangan tolasimon massasini amaliy qo'llash sohalarini topish.

**Tadqiqotning ob'ekti:** qoramol xom terisi, oshlangan teri chiqindilari – xrom qirindisi (XQ), kollagensaqlovchi eritma (KE), akril emulsiyasi (AE), MS-6 sinf makulaturasi, natriy gidroksid va natriy karbonat.

**Tadqiqotning predmeti:** tolali chiqindilarga ishqoriy ishlov berish jarayonlari, suspenziyaning elektrokinetik xossalari, modifikatsiya jarayonlari kimyosi, modifikatsiyalangan xrom qirindisi va tolali materialning morfologiyasi, elementar tarkibi, fizik-mexanik va termik xossalaridir.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada fizik-kimyoviy va elektrokinetik tadqiqot usullari, eksperimental namunalarni fizik-mexanik tekshirish usullari, termogravimetrik (TGA) va differensial-termik analiz (DTA), IQ-Furye spektroskopiyasi (FT-IR), skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), SEM-EDS element tahlillari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oshlanmagan va xromli oshlangan teri chiqindilarini ishqoriy modifikatsiyalashning samarali usuli amalga oshirilgan va xrom qirindilarining ishqoriy modifikatsiyasidan so'ng tolali suspenziyaning elektrokinetik potentsialining va uning barqarorligini oshishi isbotlangan;

xrom qirindilarining ishqor eritmasi bilan o'zaro ta'sirida teri kollagenining qisman gidrolizlanishi natijasida yangi qutbli amino- va karboksil guruhlarning shakllanishi, eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi asosida ishqoriy gidrolizlanish geterogen reaksiyasining asosiy kinetik parametrlari aniqlangan;

ishqoriy modifikatsiya jarayonida xrom qirindilarining o'zaro tikilish darajasining oshishi, xrom qirindilarining oqsil makromolekulalari va chiqindi qog'oz sellyulozasi o'rtasida molekulalararo vodorod bog'larining shakllanishi aniqlangan;

tolali suspenziyaning yuqori elektrokinetik potentsiali, modifikatsiyalangan oqsilning sellyuloza bilan molekulalararo o'zaro ta'siri, xrom ionlarining tolalarning azot va kislorod atomlari bilan yangi koordinatsion bog'lari, tolali massani akril emulsiyasi yoki kollagen bilan yelimlanishi sirt morfologiyasi va ular asosida olingan qadoqlash qog'ozining yuqori fizik-mexanik xususiyatlariga olib kelishligi aniqlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

oshlangan va oshlanmagan charm qoldiqlari, makulatura va akril emulsiya asosida modifikatsiyalangan tolali massasi olindi va undan qadoqlash qog‘ozi va poyabzal pataklari ishlab chiqilgan;

tolasimon massa hosil bo‘lishi uchun yelimlovchi sifatida qoramol terisi kollagenining afzalliklari, u qo‘llanilganda nafaqat adgeziya, balki kimyoviy kondensatsiya jarayoni ham sodir bo‘lishligi isbotlangan;

tolasimon massani maydalash va unga akril emulsiya va kollagen asosidagi yelimlovchi moddani qo‘llash sharoitlari ishlab chiqilgan, maydalash darajasi va tola uzunligini uning xususiyatlariga ta’siri aniqlangan;

modifikatsiyalangan xrom qirindisi va tolali massasining mikro tuzilishi, elementar tarkibi, morfologiyasi, termo va fizik-mexanik xossalari, kompozit qog‘oz va asosiy poyabzal patagining adgeziyasi va elastikligining yaxshilanishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Natijalarning molekulalararo o‘zaro ta’sirning zamonaviy nazariyasiga, matematik statistika qonunlariga muvofiqligi hamda fizik va kimyoviy usullar – IQ-Furye spektroskopiyasi, elektron mikroskopiya, DTA va SEM-EDS tahlillari yordamida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yangi qutbli guruhlarining paydo bo‘lishiga yordam beradigan, bir vaqtning o‘zida mahsulotning o‘zaro bog‘lanish darajasini oshiradigan xrom qirindilarining ishqoriy modifikatsiyasini o‘rnatilishi bilan izohlanadi. Teri-makulatura-akril emulsiya kompozitsiyasini qizdirish jarayonidagi issiqlik effektlari yelimlovchi reagentining tolalarga adgeziyasini tavsiflaydi. Kollagensaqlovchi eritma yelimlovchi sifatida ishlatilganda, nafaqat adgeziya, balki quyi molekulyar birikmalarning ko‘p miqdorda chiqishi bilan kimyoviy kondensatsiya sodir bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati modifikatsiyalangan tolali massaning asosiy ko‘rsatkichlarini: yuza zichligi, uzilish kuchi va uzilish uzunligi, ikki tomonlama bukilishlar soni sof makulaturadan olingan massaga nisbatan, shuningdek, qayta ishlanmagan teri chiqindilaridan olingan massaga nisbatan ko‘proq darajada yaxshilashi bilan; xromli oshlangan terining ishqor eritmasida modifikatsiyalangan chiqindilari asosiy poyabzal patagi uchun karton va qadoqlash qog‘ozi ishlab chiqarish uchun muhim xomashyo bazasi bo‘lishligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ikkilamchi sellyuloza va teri chiqindilarining tolasimon massasini modifikatsiyasi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

teri ishlab chiqaruvchi korxonalarida chiqindilarini qayta ishlash, modifikatsiyalangan tolali massa olish usuli “HAMKOR NUR SAVDO” korxonasi amaliyotiga joriy etilgan (“O‘zcharmsanoat” uyushmasining 2024-yil 22-apreldagi 04/25-842-sonli ma’lumotnomasi). Natijada modifikatsiyalangan xrom qirindilarini kompozit o‘rash qog‘ozini ishlab chiqarishda sellyulozani 50% gacha tejash imkoniyatini bergan.

modifikatsiyalangan charm chiqindilari va ikkilamchi sellyulozaning tolali massasi “PRO-OBUV” korxonasida asosiy poyabzal patagi uchun joriy etilgan

(“O‘zcharmsanoat” uyushmasining 2024-yil 22-apreldagi 04/25-842-sonli ma’lumotnomasi). Kompozitsiyaning asosiy tarkibiy qismi charm va qog‘oz chiqindilari bo‘lganligi natijasida poyabzal patagining narxi 20% gacha arzonlashishiga, assortimentning kengayishiga va poyabzal qismlarining fizik-mexanik xususiyatlarini 15 % gacha yaxshilanishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola bo‘lib, shu jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy (shulardan 2 tasi Scopus ma’lumotlar bazasiga kiradi) jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

## DISSERTASINING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsad va vazifalari asoslangan, ob’ekt va predmet tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqidagi ma’lumotlar ochib berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Sellyuloza va teri chiqindilarini qayta ishlash va modifikatsiyalash muammolari”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusiga oid chop etilgan ishlar manbalari asosida ilmiy tadqiqot va tahlil natijalariga baho berilgan. Qog‘oz va poyabzal ishlab chiqarish uchun tolali massa olish texnologiyasining hozirgi holati tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishining **“Tolali chiqindilarni modifikatsiyalash va xossalarini aniqlash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob’yektlarining xarakteristikalarini, modifikatsiyalangan tolali massa va o‘lchov vositasini olish usullari, kompozitsiyaning fizik-kimyoviy va mexanik xususiyatlarini o‘rganish usullari keltirilgan. Bundan tashqari modifikatsiyalangan tola massasidan qadoqlash qog‘ozi va asosiy poyabzal patakleri ishlab chiqarish usullari keltirilgan.

Modifikatsiya jarayonini amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, xrom qirindilariga (XQ) 1-5 foizli natriy gidroksid (NaOH) yoki natriy karbonat ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) eritmasida 1:10 vanna modulida  $0,5 \div 3,0$  soat davomida ishqoriy ishlov berildi, keyin  $60-65^\circ \text{ShR}$  darajasigacha maydalanish amalga oshirildi. Tolasiimon massa eritmadan ajratildi, suvli idishga joylashtirildi va bir kunga qoldirib, muhit neytral bo‘lgunga qadar suvda yuvildi. 2-3% NaOH eritmasida modifikatsiyalangan XQ,  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  eritmasida modifikatsiyalangan namunaga nisbatan ancha qayishqoq va elastik bo‘ldi.

4-5% NaOH eritmasida modifikatsiya qilingan namuna paxtasimon massaga aylandi, quritilgandan keyin qattiq plastik holatga keldi.

Qadoqlash qog‘ozini quyish uchun modifikatsiyalangan xrom qirindisi (MXQ), makulatura va yelimlovchi polimer – AE yoki KE dan foydalanilgan. MXQ va makulaturaning 50:50 massa nisbatida tayyorlangan tolali massaga nisbatan 2% miqdorida yelimlovchi reagent kiritilib poyabzalning asosiy patagi olindi.

Uchinchi bob, “**Modifikatsiyalangan tolali massasining tarkibi, xossalari va qo‘llanilishi**”da tadqiqot natijalari muhokama qilingan. Tolali massa elektrokinetik zaryadga va katta o‘ziga xos sirt maydoniga ega, shuning uchun butun sistemaning xususiyatlarida sirt hodisalarining ahamiyati katta. Ushbu hodisalarning ta’siri tolali massani suyultirish bilan kuchayadi.

Elektrolitlar tarkibi va konsentratsiyasining o‘zgarishi elektrokinetik potensial o‘zgarishiga olib keladi. O‘lchov natijalari shuni ko‘rsatdiki, teri chiqindilariga ishqoriy ishlov berishdan so‘ng, tolali massaning elektrokinetik xususiyatlari sezilarli darajada o‘zgaradi (1-jadval).

## 1-jadval


Xrom qirindilari suspenziyasining elektrokinetik xususiyatlari

Ko‘rsatkichlar	Modifikatsiyalanmagan XQ suspenziyasi	MXQ suspenziyasi, $NaOH / Na_2CO_3$ konsentratsiyasi, %				
		1	2	3	4	5
Elektrokinetik potensial, mV	54,6	120,8/ 98,3	142,1/ 98,9	145,4/ 106,6	148,3/ 110,8	129,1/ 109,5
Solishtirma elektr o‘tkazuvchanlik, $\mu S/cm$	14,2	1,13/ 0,48	2,07/ 0,55	2,15/ 0,67	2,21/ 0,79	1,64/ 0,87

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, XQ 4% li ishqor eritmasi bilan modifikatsiyalangan so‘ng, EP ortadi va ishqor konsentratsiyasi 5% bo‘lganda, u yana pasayishni boshlaydi. Modifikatsiyalanmagan xrom qirindisining (MNXQ) suspenziyasi MXQ suspenziyasiga nisbatan ko‘proq elektr o‘tkazuvchanligiga ega. MNXQ xom terini qayta ishlash va oshlash jarayonlarida ishlatiladigan elektrolitlarni saqlab qoladi. MXQ yuvish jarayonida bu elektrolitlar namunadan chiqib ketadi. Elektrokinetik parametrlarning qiymatlariga ko‘ra, ishqoriy modifikatsiya uchun 2% natriy gidroksid eritmasi yetarli bo‘ldi. Ishqorning 5% yoki undan yuqori konsentratsiyasida suspenziyaning xususiyatlari yomonlashadi.  $Na_2CO_3$  eritmasi bilan modifikatsiya qilish XQ ning organoleptik xususiyatlari va suspenziyaning elektrokinetik xususiyatlarini sezilarli o‘zgartirmaydi.

Qo‘llanilgan NaOH eritmasining pH qiymati  $pH = 12,7-13,0$  (kuchli ishqoriy muhit),  $Na_2CO_3$  eritmasi esa  $pH = 10,8-11,5$  (kuchsiz ishqoriy muhit) oralig‘ida bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, XQ ning mikrotuzilishini o‘zgartirish uchun yuqori ishqoriy muhit talab qilinadi;  $Na_2CO_3$  eritmasining ishqoriyligi kutilgan o‘zgarishlar uchun yetarli emasligi ma’lum bo‘ldi. Suspenziyaning elektrokinetik xususiyatlarini o‘zgarishi XQ ni ishqoriy modifikatsiyasi natijasida uning mikrotuzilishining

o'zgarishi bilan bog'liqligi IQ-Furye spektroskopiya usuli yordamida qayd etilgan (1-rasm).



**1-rasm.** XQ ning IQ-Furye spektrlari: (A) - ishlov berilmagan, (B) - 2% ishqor eritmasida ishlov berilgan, (C) - 5% ishqor eritmasida ishlov berilgan

XQ ning IQ-Furye spektrlari oqsil moddalar bog'lanishlarining valent ( $\nu$ ) va deformatsion ( $\delta$ ) tebranishlariga xos bo'lgan yutilish chiziqlarini aniqladi: 3292  $\text{sm}^{-1}$  da  $-\nu_{N-H}, \nu_{O-H}$ ; 3076 va 2987  $\text{sm}^{-1}$  da  $-\nu_{C-H}$ ; 1628  $\text{sm}^{-1}$  da  $-\nu_{C=O}$  (amid I yo'lkasi); 1539  $\text{sm}^{-1}$  da  $-\delta_{N-H}$  (amid II yo'lkasi); 1446  $\text{sm}^{-1}$  da  $-\nu_{C-H}$ ; 1335 va 1235  $\text{sm}^{-1}$  da  $-\nu_{C-N} + \delta_{N-H}$  (amid III yo'lkasi); 1202-973  $\text{sm}^{-1}$  da  $-\nu_{C-N}, \nu_{C-O}$ .

2% ishqor eritmasi bilan modifikatsiyalangan XQ ning IQ-Furye spektrlarida quyidagi o'zgarishlar aniqlandi:

1.  $\nu_{N-H}, \nu_{O-H}$  valent tebranishlarning yutilish yo'lkalarining intensivligi va kengligini ortishi, bu gidroksil va aminokislotalar, shuningdek molekulararo vodorod bog'lari sonining ko'payishi natijasidir;


2. Yutilish yo'lkalarining asosan yuqori chastotali sohaga siljishi;

3. 1398 va 1281  $\text{sm}^{-1}$  sohada yangi yutilish yo'lkalarining paydo bo'lishi.


5% ishqor eritmasi bilan modifikatsiyalangan XQ namunasida IQ-Furye spektridagi o'zgarish darajasi pasayadi, ya'ni bu spektr modifikatsiyalanmagan

namunaning spektriga yaqin. Ishqor konsentratsiyasi ortishi bilan teri kollagenining gidrolizi kuchayadi va birinchidan, bir-biriga yaqin joylashgan qarama-qarshi zaryadlar neytrallana boshlaydi. Ikkinchidan, zarrachalar dispersiyasining ortishi hisobiga zarrachalarning solishtirma sirt maydoni va shunga mos ravishda umumiy sirt energiyasi ortadi. Bularning barchasi EP ning pasayishiga va tolali suspenziyaning barqarorligi kamayishiga olib keladi.

XQ ga ishqoriy eritma bilan ishlov berilganda oqsil makromolekulasining choklangan strukturasi qisman gidrolizi sodir bo'ladi, teri bo'shashadi, zarrachalar kichikroq bo'ladi. Natriy gidroksid quyidagi sxemalar bo'yicha oqsil makromolekulasi bog'larining uzilishiga olib keladi.



Tuz ko'priklarining gidrolizi:



Bunday jarayonlar natijasida dispers faza zarralari yuzasida potensial belgilovchi ionlarning adsorbsiyasi kuchayadi. Zarrachalar o'lchamlarining kichrayishi bilan bir vaqtda adsorbsion qatlamning ion zichligini o'zgarishi, sistemaning EP ni oshirishga yordam beradi. Bunday holda, diffuzion qavatdagi ionlarning umumiy soni kamayadi, chunki XQ ishqoriy modifikatsiyadan so'ng yaxshilab yuviladi. Bu jarayon sistemaning elektr o'tkazuvchanligini pasayishiga olib keladi.

XQ ishqoriy modifikatsiyasining reaksiya tezligi va kinetik bog'liqliklarini aniqlash uchun vaqt o'tishi bilan reagentlar yoki mahsulotlar konsentratsiyasining o'zgarishini o'lchash kerak. Teri tolalarida funktsional guruhlarining konsentratsiyasini aniqlash ushbu guruhlar sonini o'lchashning amaliy imkonsizligi tufayli ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Modifikatsiya reaksiyasining borishini kuzatish uchun eng qulay parametr reaksiya davomida ishqor konsentratsiyasining o'zgarishi hisoblanadi. Eritmadagi elektrolitlar konsentratsiyasini aniqlash uchun ishonchli va qulay fizik parametr eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligini qiymati bo'lishi mumkin. Buning uchun birinchi navbatda natriy gidroksid konsentratsiyasi va eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi o'rtasidagi bog'liqlik grafigi chizildi. Ishqor konsentratsiyasi 0,125÷1,25 mol/l (1÷5% massaga nisbatan) qiymatlarida uning konsentratsiyasini eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligiga bog'liqligi to'g'ri chiziq bo'lib chiqdi.

Kutilganidek, ishqoriy gidroliz reaksiyasi jarayonida reaksiya muhitida natriy gidroksid konsentratsiyasining pasayishi kuzatildi. XQ ning ishqoriy gidroliz


reaktsiyasi geterogen jarayon bo'lib, unda XQ qattiq fazani ifodalaydi. Ma'lumki, geterogen reaksiya tezligi, gomogen fazada bo'lgan reagent, bu holda natriy gidroksid konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir. Shunga ko'ra, reaksiya tezligi uchun kinetik tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$v = k[NaOH]^n$$


bu yerda  $v$  - reaksiya tezligi, mol/(l·s);  $k$  - reaksiyaning tezlik konstantasi;  $[NaOH]$  – natriy gidroksid konsentratsiyasi;  $n$  – natriy gidroksid konsentratsiyasi bo'yicha reaksiya tartibi.

Reaksiyalarning kinetik parametrlari ( $k$  va  $n$ ) ishqor konsentratsiyasini vaqtga bog'liqlik grafigini boshlang'ich to'g'ri chiziqli qismi asosida aniqlandi. Reaksiya tezligining ishqor konsentratsiyasiga logarifmik bog'liqligi tuzildi (2-rasm), hosil bo'lgan to'g'ri chiziqning abscissa o'qiga og'ish burchagi tangensi  $n=1,05$  reaksiya tartibining qiymatini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, XQ ning ishqoriy gidrolizi reaksiyasi birinchi tartibli kinetik tenglamaga to'g'ri keladi va bu reaksiya tezligi natriy gidroksid konsentratsiyasining ko'tarilishi bilan to'g'ri chiziqli ortadi.

Yana bir muhim kinetik parametr reaksiyaning umumiy aktivlanish energiyasidir. Aktivlanish energiyasini ( $E$ ) aniqlash uchun turli haroratlarda reaksiya tezligining logarifmini temperaturaning teskari qiymati bilan bog'liqlik grafigi chizilgan (3-rasm).



**2-rasm.** XQ gidroliz reaksiya tezligining natriy gidroksid konsentratsiyasiga logarifmik bog'liqligi



**3-rasm.** XQ gidroliz reaksiya tezligi logarifmini haroratga bog'liqligi

Hosil bo'lgan to'g'ri chiziqning 3-rasmdagi abscissa o'qiga og'ish burchagi tangensidan gidroliz reaksiyasi uchun umumiy aktivlanish energiyasi  $E = 33,1$  kJ/mol deb hisoblangan. Bu juda past qiymat bo'lib, o'rtacha haroratlarda energiya jihatidan qulay sharoitlarda sodir bo'ladigan reaksiyalarga xosdir.  $30 \div 60^\circ\text{C}$  harorat oralig'ida reaksiyaning harorat koeffitsienti 1,1 ga teng bo'lib chiqdi, bu esa harorat oshishi bilan reaksiya tezligining biroz ortishidan dalolat beradi.

Kinetik tenglamaga NaOH konsentratsiyasini va shu konsentratsiyadagi reaksiya tezligini qo'yib, xona haroratida ishqoriy gidroliz reaksiyasi uchun tezlik konstantasi hisoblab chiqildi. Ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan. Turli haroratlarda

XQ ning ishqoriy gidrolizi uchun reaksiya tezligi konstantasi o'xshash qiymatlarga ega, o'rtacha qiymat  $k_{o'rtacha} = 18,5 \cdot 10^{-5}$  bo'lib chiqdi. Bu qiymat xona haroratida ham gidroliz reaksiyasining ancha yuqori tezligini ko'rsatadi.

## 2-jadval


XQ ning ishqoriy gidroliz reaksiyasi tezlik konstantasi

NaOH konsentratsiyasi, mol/l	Reaksiya tezligi, mol/(l·s)	Reaksiyaning tezlik konstantasi, $k$ , 1/s	$k_{o'rtacha}$
0,25	$5,3 \cdot 10^{-5}$	$22,7 \cdot 10^{-5}$	18,5 · 10 <sup>-5</sup>
0,5	$8 \cdot 10^{-5}$	$16,5 \cdot 10^{-5}$	
0,75	$14 \cdot 10^{-5}$	$18,9 \cdot 10^{-5}$	
1,0	$18 \cdot 10^{-5}$	$18,0 \cdot 10^{-5}$	
1,25	$21 \cdot 10^{-5}$	$16,6 \cdot 10^{-5}$	

NaOH konsentratsiyasi 3-5% bo'lganda, XQ chuqurroq gidrolizi yuqori tezlikda sodir bo'ladi, ehtimol modifikatsiya qilish uchun zarur bo'lganidan ko'proq. Bunday holda, XQ ning tolali tuzilishi buziladi va paxtasimon massa hosil bo'ladi. Chuqur gidroliz tufayli, 4-5% ishqor konsentratsiyasida past molekulyar kollagen bo'laklari hosil bo'lishi bilan XQ ning bir qismi eritmaga o'tadi. Eritmada erkin  $Cr^{3+}$  ionlari paydo bo'lib, eritmada yorqin yashil rang paydo bo'ladi.

XQ ning ishqoriy gidrolizi reaksiyasining olingan kinetik bog'liqliklari jarayonning eng maqbul texnologik rejimlarini aniqlash imkonini berdi: natriy gidroksid konsentratsiyasi – 2%, harorat – xona harorati, vaqt – 40-60 minut.

XQ namunalari termik xossalari o'rganildi. Uchta XQ namunalari TGA va DTA egri chiziqlari taxminan bir xil shaklga ega. MNXQ ning DTA egri chizig'ida kimyoviy jarayonni tavsivlovchi endotermik va ekzotermik cho'qqilar mavjud (4-rasm). 2% li ishqor eritmasida MXQ namunasida issiqlik effektlarining qiymati kamayadi. MNXQ namunasi termik parchalanishi birinchi bosqichi xona temperaturasida boshlanib, 227°C da tugaydi; MXQ namunasida ushbu bosqich yuqoriroq 247°C gacha davom etadi. Birinchi bosqichda namunalarning massasi ehtimol yutilgan suvning chiqib ketishi hisobiga 12-13,5% atrofida kamayadi. TGA ning ikkinchi bosqichi termokimyoviy parchalanish va kimyoviy kondensatsiya hisobiga massaning intensive kamayishi bilan tafsivlanadi. Namunalarning 600°C gacha umumiy massa yo'qotishi quyidagi qatorda kamayib boradi: MNXQ (92%), 2% li ishqor eritmasida (84%) va 5% li ishqor eritmasida (84%) MXQ.




**4-rasm.** MNXQ (A), 2% ishqor eritmasida (B) va 5% ishqor eritmasida (C) MXQ ning TGA va DTA egri chizilari.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ishqoriy modifikatsiya jarayoni XQ ning termik xossalarini yaxshilaydi. Kollagen gidrolizi jarayoni molekulyar massaning sezilarli pasayishiga va XQ xossalarining shunga mos ravishda yomonlashishiga olib kelmaydi.


MNXQ namunasida issiqlik effektining mavjudligi terini oshlashda choklanish reaksiyalarining to'liq emasligini ko'rsatadi. Bu reaksiyalar yuqori harorat ta'sirida MNXQ da davom etadi. Ishqoriy modifikatsiya nafaqat yangi qutbli guruhlarning paydo bo'lishiga, balki mahsulotning o'zaro choklanish darajasini oshirishga ham yordam beradi. Bu TGA natijalari bilan tasdiqlanadi: massa yo'qotish qanchalik kam bo'lsa, yuqori temperaturada ham parchalanmaydigan choklangan mahsulot, yani koks qoldig'ining miqdori ko'p bo'ladi. 5% li ishqor eritmasida XQ chuqurroq gidrolizga uchraydi, quyimolekulyar bo'laklarning eritmaga o'tishligi va uchib chiqishligi sodir bo'ladi. Qolgan kollagenning xossalari termoplastik polimerlarning xossalariga yaqinlashadi, buni namunaning organoleptik xossalaridan ham bilish mumkin. Ushbu namunaning DTA egrisida o'zgacha holat qayd etildi, ya'ni 365,24°C da katta -451,6 J/g qiymatga teng endotermik effektini namoyon etuvchi cho'qqi mavjud. Bu effekt termoplastik polimerning intensiv parchalanishiga mos keladi.

MXQ ning selluloza va yelimlovchi modda bilan o'zaro ta'sirini aniqlash uchun kompozit tolali materialning (KTM) IQ-Furye spektrlari qayd etildi (5-rasm). Kutilganidek, KTM spektrida, taxminan XQ da bo'lgani kabi yutilish yo'laklari topildi, ba'zi o'zgarishlar bundan mustasno. Tebranishlar soni 1630-850  $\text{sm}^{-1}$  bo'lgan oraliqda yutilish yo'laklar soni ortadi va bir nechta yangi yo'laklar paydo bo'ladi, bu selluloza va yelimlovchi modda o'rtasidagi bog'lanishlarning tebranishi bilan bog'liq. MXQ va makulatura sellulozasi o'rtasidagi IQ-Furye ma'lumotlariga ko'ra, o'zaro ta'sir kovalent yoki ion bog'lari emas, balki molekulararo vodorod bog'lari darajasida sodir bo'ladi.




**5-rasm.** Akril emulsiya (A) va kollagen eritmasi (B) yordamida 50:50 massa nisbatida makulatura va XQ dan olingan KTM ning IQ-Furye spektrlari.

KTM ning TGA va DTA tadqiqotlari o‘tkazildi (6-rasm). Birinchi bosqichda AE kiritilgan KTM namunasida massaning taxminan 13%, KE kiritilgan namunada esa taxminan 10% yo‘qoladi. Parchalanishning ikkinchi bosqichida namunalarning asosiy qismi, AE kiritilgan tolali massasi 69,19% ga, KE kiritilgan namunaning massasi 67,72% ga kamayadi. AE kiritilgan namunaning DTA egrilarida issiqlik effekti ko‘rinmadi, bu esa yelimlovchi moddani XQ va sellyuloza tolalariga adgeziya jarayonini tavsiflaydi. Kollagen qo‘silgan tolali materialning DTA egrilarida ekzotermik effekt bilan bir necha cho‘qqilar namoyon bo‘ladi. Bu yerda nafaqat adgeziya, balki past molekulyar birikmalar ajralishi bilan kimyoviy kondensatsiya sodir bo‘ladi.



**6- rasm.** Akril emulsiya (A) va kollagen eritmasi (B) yordamida 50:50 massa nisbatida makulatura va XQ dan olingan KTM ning TGA va DTA egrilari.

Ishqoriy ishlov berish XQ sirtining morfologiyasini sezilarli darajada o'zgartiradi (7-rasm).




**7-rasm.** XQ zarralari yuzasining SEM tasvirlari: ishlov berilmagan (A), 2% ishqor eritmasida (B) va 5% ishqor eritmasida (C) ishlov berilgan.

MNXQ bo'laklari noaniq shakl va o'lchamdagi mikrog'ovoklarga ega bo'lgan notekis sirtga ega va qo'shimcha mahsulotlarning mavjudligi sezilarli.


2% ishqor eritmasida ishlov berilgandan so'ng, namuna bo'laklarining yuzasi tekislanadi va qo'shimcha aralashmalar deyarli butunlay yo'qoladi. 5% li ishqor eritmasida ishlov berilgandan so'ng, bo'laklar pachoqlanadi, sirt burmali shaklga ega bo'ladi va XQ ning o'zi qattiqroq va mo'rt bo'ladi, sirt morfologiyasi va xususiyatlari yomonlashadi.

2% ishqor eritmasida MXQ va ikkilamchi sellulozaning 50:50 massa nisbatida aralashtirish orqali olingan KTM namunalarining SEM tasvirlari 8-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, AE yelimlovchi modda sifatida kiritilganda, selluloza va XQ ning alohida tolalari aniq ko'rinadi. KE kiritilishi bilan tola va yelimlovchi moddaning chegarasi siyqallashadi, selluloza tolalarini ajratish mumkin, ammo XQ tolalari kollagen bilan uyg'unlashadi. Bu KE da va XQ da bir xil polimer – kollagen oqsili mavjudligining oqibatidir.

Olingan KTM namunasining SEM-EDS tadqiqotlari o'tkazildi (9-rasm). Shunisi e'tiborga loyiqki, ikkinchi KTMDa azot miqdori birinchisiga qaraganda deyarli ikki baravar ko'p. AE dan farqli ravishda, kollagen tarkibida azot bor (taxminan 15-20%) va uni har ikkala tolali komponentga moyilligi yuqori. Bundan kelib chiqadiki, kollagen oqsili ham MXQ, ham qog'oz tolalari yuzasini qoplaydi va yelimlovchi modda vazifasini mukammal bajaradi. Keyingi tadqiqotlar bu holat KTM ning fizik va mexanik xususiyatlariga qanday ta'sir etishligini ko'rsatadi.




**8-rasm.** AE (A) va KE (B) kiritilgan KTM yuzasining SEM tasvirlari



**9-rasm.** AE (A) va KE (B) yordamida 50:50 massa nisbatida makulatura va MXQ dan olingan KTM ning SEM-EDS spektrlari.

Kompozit tola materialning fizik-mexanik xususiyatlari, birinchi navbatda, uzilish uzunligi va sinish koʻrsatkichi yoki ikki taraflama buklanishlar soni bilan baholanadi, ammo boshqa xossalari ham muhimdir. 10-rasmda AE va KE dan foydalangan holda bu koʻrsatkichlarning ishlab chiqarilgan eksperimental qogʻozlar tarkibiga bogʻliqligi koʻrsatilgan. KTM da MNXQ dan foydalanilganda, yelimlovchi moddaning kiritilishi qoniqarli mustaxkamlik koʻrsatkichlariga erishishga yordam bermaydi. MXQ dan foydalanilganda esa ham AE bilan, ham KE bilan, sirt zichligi, uzilish kuchi va uzilish uzunligida sezilarli va taxminan bir hil yaxshilanishlar kuzatiladi.



**10-rasm.** MNXQ (A, B) va MXQ (C, D) AE (A, C) va KE (B, D) kiritilishi bilan olingan qog‘ozning sirt zichligi (I), uzilish kuchi (II), uzilish uzunligi (III) va ikki marta buklanishlar sonini (IV) makulatura : XQ nisbatiga bog‘liqligi: 1) 100:0; 2) 75:25; 3) 50:50; 4) 40:60; 5) 25:75.

Ikki marta buklanishlar soni bo‘yicha KE AE ga nisbatan ma‘lum afzalliklarga ega. Ko‘rinib turibdiki, bunga XQ polimeri va yelimlovchi modda tabiatining to‘liq kimyoviy muvofiqligi yordam beradi.

MXQ va qayta ishlangan sellyuloza asosida hosil bo‘lgan tolali massa charm mahsulotlarini, shu jumladan poyabzal qismlarini ishlab chiqarish uchun muvaffaqiyatli ishlatilishi mumkin. Poyabzal patagining fizik-mexanik xossalari, birinchi navbatda, cho‘zilishdagi mustaxkamlik, uzilish uzunligi, zichligi va sinish indeksi yoki ikki tomonlama buklanishlar soni bilan baholanadi. 3-jadvalda SOM brendining nazorat sanoat namunasidagi poyabzallarning asosiy patagi, hamda XQ va makulaturadan olingan pataklarning fizik-mexanik xususiyatlari ko‘rsatilgan.

### 3-jadval

Poyabzal pataklari uchun tolalar massasining xususiyatlari

Poyabzal turi	Cho‘zilish kuchi, N	Uzilish uzunligi, m	Ikki marta buklanishlar soni, marta	Zichlik, g/sm <sup>3</sup>
Nazorat namunasi	665,2	12300	300 ortiq	0,82
Eksperimental karton	770,9	14600	300 ortiq	0,95

Ishning amaliy ahamiyati poyabzal pataklari uchun kartonning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqishda yotadi. Ushbu ishlanma poyabzal qismlarining assortimentini kengaytirish va fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilashga yordam

beradi va uni amalga oshirish natijasida terini qayta ishlash korxonasi foydali maydoni chiqindilardan tozalanadi va ularning atrof-muhitga zararli ta'siri kamayadi.

## XULOSA

1. Oshlangan va oshlanmagan teri chiqindilarini ishqoriy modifikatsiyasi amalga oshirildi va ular asosida ikkilamchi sellyuloza va akril emulsiyani o'z ichiga olgan tolali massa olindi. Tolali massani samarali modifikatsiyalash jarayonini amalga oshirish uchun sharoitlar – ishqor konsentratsiyasi (1,5-2%), harorati (xona temperaturasi) va vaqti (40-60 minut) aniqlandi.

2. Oshlangan teri chiqindilarining – xrom qirindisining ishqoriy modifikatsiyasi elektrokinetik potentsialning oshishiga olib keladi va shunga mos ravishda tolali suspenziyaning barqarorligi ortadi, yangi qutbli guruhlarning shakllanishi bilan teri kollagenining qisman gidrolizi sodir bo'ladi va shu bilan birga choklanish darajasi kuchayadi. Tolali massada sellyuloza va teri kollageni o'rtasida yangi molekulalararo bog'lar hosil bo'lishligi izohlandi.

3. Xrom qirindisi ishqoriy gidrolizi jarayonining asosiy kinetik parametrlari elektrofizik usulda reaksiyon eritmaning nisbiy elektr o'tkazuvchanligi o'lchash va qolgan ishqor konsentratsiyasini topish yo'li bilan aniqlandi. Reaksiya tezligi konstantasining ( $18,5 \cdot 10^{-5} \text{ s}^{-1}$ ), natriy gidroksid konsentratsiyasi bo'yicha reaksiya tartibi (1,05) va jarayonning umumiy aktivlanish energiyasi (33,1 kJ/ mol) qiymatlari jarayonning energiya jihatidan avzal sharoitda, o'rtacha haroratlarda, juda yuqori tezlikda sodir bo'lishini ko'rsatadi.

4. Modifikatsiyalangan xrom qirindisi va kompozitsion tolali massaning mikro tuzilishi, elementar tarkibi, morfologiyasi, termik va fizik-mexanik xususiyatlari aniqlandi. Modifikatsiyalangan tolali massadan tayyorlangan qadoqlash qog'ozining asosiy ko'rsatkichlari: sirt zichligi (16-25% ga pasayish), uzilish kuchi va uzilish uzunligi (15-23% ga o'sish), ikki marta buklanishlar soni (2-6 martaga ortishi) sof makulatura va modifikatsiyalanmagan xrom qirindisidan olingan qog'ozga nisbatan sezilarli yaxshilanishiga erishildi.

5. Modifikatsiyalangan tolali massa qadoqlash qog'ozini va asosiy poyabzal tagligi uchun karton ishlab chiqarishda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Terini oshlash korxonalarida ko'p miqdorda to'planib qolgan charm chiqindilarini qayta ishlash va xossalari yaxshilangan tolali mahsulotlar olish atrof-muhitga tushadigan ekologik zararni kamaytirish bilan birga, iqtisodiy jihatdan ham samarali ekanligi izohlandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**КАДИРОВА НАРГИС РУСТАМ КИЗИ**

**ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКАЯ МОДИФИКАЦИЯ ВТОРИЧНОЙ  
ЦЕЛЛЮЛОЗО-И КОЖЕСОДЕРЖАЩЕЙ ВОЛОКНИСТОЙ МАССЫ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.1.PhD/К747.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский) размещен на веб-сайте Ташкентского института текстильной и легкой промышленности ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Рафиков Адхам Салимович**  
доктор химических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Юлдашев Шерзод Абдуллаевич**  
доктор химических наук, профессор

**Худайбердиева Дилфуза Бахрамовна**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский химико-технологический институт**

Защита диссертации состоится 11 декабря 2024 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5, Административное здание, Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, 222-аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz).)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована № 212). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон- 5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 26 ноября 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № 212 от 26 ноября 2024 года).



**Х.Х. Камилова**

Председатель разового Ученого совета по присуждению учёных степеней д.т.н., профессор

**А.З. Маматов**

Ученый секретарь разового Ученого совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

**И.А. Набиева**

Председатель научного семинара при разовом Ученом совете по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире за последние годы несколько изменилась тенденция приоритетности конструкционных, листовых, упаковочных, в том числе волокнистых, материалов: предпочтение отдается натуральным материалам и изделиям по сравнению с синтетическими материалами. Это связано, прежде всего, экологической безопасностью, заботой сохранения окружающей среды и здоровья населения, с теми невосполнимыми рисками, которые несут в себе биологически не разлагаемые синтетические материалы. К сожалению, природные запасы и возможности выращивания, возобновления натурального сырья ограничены пространством, временем и климатическими условиями. Между тем, использование огромного количества технологических отходов, которые образуются во всех целлюлозно-бумажных, и особенно кожевенных предприятиях, а также волокнистых бытовых отходов имеет важное значение.

В мире проводятся исследования направленные на восстановление волокнистых и кожевенных отходов, создание широкого ассортимента известных и новых материалов на их основе, разработку технологии их производства. В этом отношении, исследования направлены на производство упаковочной бумаги и картона из макулатуры – основного компонента целлюлозосодержащих промышленных и бытовых отходов, на переработку дубленых отходов кожи, которые образуются в кожевенных предприятиях, на создание модифицированной волокнистой массы и соответствующей продукции из восстановленного вторичного сырья полисахаридной и белковой природы. Уделяется особое внимание переработке этих отходов с получением целевой продукции для бумажной и кожевенно-обувной промышленности, что уменьшает экологическую нагрузку на окружающую среду, одновременно имеет экономическую эффективность.

В Республике Узбекистан функционирует ряд кожевенных предприятий, специализирующихся на производстве дубленой кожи из шкуры крупного рогатого скота и овца, это отрасль становится одним из приоритетных в экономике страны. Проводятся широкомасштабные мероприятия и достигнуты определенные результаты по переработке волокнистых бытовых отходов, выделению и использованию коллагена из недубленой шкуры, переработке отходов кож хромового дубления. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи «к 2026 году довести сбор бытовых отходов на 100 процентов, уровень их переработки от 21 до 50 процентов»<sup>1</sup>. При выполнении этих задач, в частности, важное значение приобретают исследования процессов физико-химической модификации отходов, процессов на границе раздела фаз, которые существенно влияют на структуру и свойства волокнистых материалов, процессов целенаправленной переработки отходов кожи, создание технологии производства из отходов экологически безвредной, биоразлагаемой волокнистой продукции.

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы”

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-5 от 4 января 2024 года «О мерах по совершенствованию системы управления отходами и снижению их негативного воздействия на экологическую ситуацию», Постановления Президента Республики Узбекистан ПП-3244 от 25 августа 2017 года «О создании в Республике дополнительных мощностей по производству целлюлозы и бумажной продукции», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

